



Dildor ESHMURATOVA,
Termiz davlat universiteti o'qituvchisi, PhD

Buxoro davlat universiteti professori M.Gadoyeva taqrizi asosida

THE ROLE OF TEOLINGUISTICS IN WORLD AND UZBEK LINGUISTICS: OPINIONS AND CONSIDERATIONS

Annatation

This article talks about the theological research done by world scientists during the period from the last century to today, prophetic language, eortology, theolinguistics, theology, sociolinguistics, neurolinguistics, religious language, religious language, sacred language, religious educational method, confessional language, sacred terms such as language and theonima are discussed in detail.

Key words: prophetic language, eortology, theolinguistics, theology, sociolinguistics, neurolinguistics, religious language, religious language, sacred language, religious educational method, confessional language, sacred language, theonima.

РОЛЬ ТЕОЛИНГВИСТИКИ В МИРОВОЙ И УЗБЕКСКОЙ ЛИНГВИСТИКЕ: МНЕНИЯ И СООБРАЖЕНИЯ

Аннотация

в данной статье говорится о богословских исследованиях, проведенных мировыми учеными в период с прошлого века до наших дней, пророческом языке, эортологии, теолингвистике, богословии, социоллингвистике, нейролингвистике, религиозном языке, религиозном языке, сакральном языке, религиозном образовательном методе, конфессиональном методе. языке подробно обсуждаются сакральные термины, такие как язык и теонима.

Ключевая слова: пророческий язык, эортология, теолингвистика, теология, социоллингвистика, нейролингвистика, религиозный язык, религиозный язык, сакральный язык, религиозно-образовательный метод, конфессиональный язык, сакральный язык, теонима.

JAHON VA O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA TEOLINGVISTIKANING O'RNI: FIKR VA MULOHAZALAR

Annotatsiya

Ushbu maqolada dunyo olimlarining o'tgan asrimizdan toki bugungacha bo'lgan davr mobaynida qilgan teolingvistik tadqiqotlari xususida gap borib, payg'ambarlik tili, eortologiya, teolingvistika, teologiya, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, diniy til, din tili, sakral til, diniy ma'rifiy uslub, konfessional til, muqaddas til, teonima kabi terminlarga atroflicha to'xtab o'tilgan.

Kalit so'zlar: payg'ambarlik tili, eortologiya, teolingvistika, teologiya, sotsiolingvistika, neyrolingvistika, diniy til, din tili, sakral til, diniy ma'rifiy uslub, konfessional til, muqaddas til, teonima.

Kirish. Har qanday jamiyat rivojlanar ekan bevosita bu ilm-fan taraqqiyoti bilan bog'liq holda boradigan jarayondir. Jamiyat va xalqning ma'naviy yetuklikka erishishida uning madaniy hayotida va komil inson tarbiyasida dinning o'rni beqiyosdir. Til va dinning o'zaro bog'liqligi ko'plab tadqiqot obyektlari bo'lib kelgan. Shu bois, din va til o'rtasidagi masalalarga oydinlik kiritish uchun teolingvistikaga murojaat qilish zaruriyati hamisha muhim vazifalardan biri hisoblanadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida diniy til, din tili va uning ko'plab atama hamda ta'riflari, *payg'ambarlik* tili, *eortologiya* tili kabi ilohiyotshunoslik turli muammolarining lisoniy yechimi teolingvistika manbasi sifatida o'rganildi. Biz ilohiyotshunoslik asosida milliy diniy qarashlarni inkor etmagan holda teolingvistik nuqtai nazardan teonimlarni tahlil qilmoqchimiz.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Teolingvistika – zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishi. U hozirgi vaqtda shakllanishining dastlabki bosqichida bo'lganligi bois, uning konstruksiyalarini har qanday refleksli tushunish zarurdir. Mazkur yo'nalish nafaqat teolingvistik mavjud tajribalarni tahlil qilishni, balki ushbu fanni loyihalashtirishni ham o'z ichiga oladi[2].

“Teolingvistika” so'zi “teologiya” yoki aksariyat Yevropa tillariga xos bo'lgan “teo” old qo'shimchasi va “lingvistika” so'zlaridan iborat. O'z navbatida “teo”- yunon tilidagi *teos* so'zidan olingan bo'lib, “*xudo*” degan ma'noni va lingvistika esa til haqidagi fanni bildiradi[3]. Bir so'z bilan aytganda, teolingvistikaga diniy manbalar, ta'limotlar, muqaddas kitoblar va ularga yozilgan tavsiflarning lingvistik

jihatdan o'ziga xosliklari, uslubiyati va farqlarini o'rganuvchi tilshunoslikning bir tarmog'i, deb qarash lozim. Ko'pgina xorijiy tillardagi izohli lug'atlarida teolingvistika ma'nosi “*diniy tilni o'rganish*” tarzida sharhlangan[4].

Mazkur termin birinchi bo'lib belgiyalik lingvist J.P.Noppen tomonidan 1981 yilda qo'llanilgan va shu sababli, J.P. Noppenni tilshunoslik sohasida teolingvistikaning otasi sifatida e'tirof etishadi. Keyinchalik 1995 yilga kelib, angliyalik lingvist Devid Kristal o'zi tuzgan ensiklopedik lug'atga teolingvistikani lingvistik termin sifatida kiritgan. Teolingvistika – bu inson so'zining qanday ekanligini tasvirlashga harakat qiladigan fan. Unda asosiy birlik o'laroq Xudoni anglatuvchi nutq birliklari ishlatiladi. Diniy va qat'iylikka to'g'ri kelmaydigan vaziyatlarda funksiyalar to'g'ridan-to'g'ri bir tomonlama aloqa standartlari, ikkinchi tomonlama uni metafora yoki nutq akti kabi mashhur shakllarda tasvirlash mantiqqa to'g'ri keladi. Darhaqiqat, bunday uslubiy bo'yoqlar tilni boyitish bilan birga undagi xilma hillikni ham ta'minlay oladi.

Ingliz ilohiyotshunos tilshunosi D. Kristelning Kembrij til ensiklopediyasida “teolingvistika” terminiga izoh keltirilganligi tufayli, bu termin alohida mashhurlikka erishdi. Keyinchalik nemis teologi A.Vanger 1999 yilda taqdimot qilish jarayonida “teolingvistika” terminidan foydalandi va mazkur terminni tilshunoslikdagi *sotsiolingvistika* va *neyrolingvistika* terminlari bilan solishtirib izohladi. A.Vagner o'z taqdimotida teolingvistika sotsiolingvistika va neyrolingvistikani o'z ichiga oladi deb ta'kidlaydi. Hamda u mazkur fanning predmet va vazifalarini belgilab beradi.

Teolingvistika termiini polyak tilshunosligiga birinchi marta Ye.D. Kucharska olib kirdi. Bu esa, bugungi Polsha teolingvistik maktabining shakllanishiga asos bo'ldi.

So'nggi o'ttiz yillikda dunyoning turli mamlakatlari teolingvistik tadqiqotlarida teonimlarning (Niderlandiya, Germaniya, Buyuk Britaniya, Polsha, Serbiya, Ukraina, Belarus, Rossiya, Slovakiya, Belgiya va boshqalar) turli lisoniy xususiyatlari o'rganilishga xarakat qilinganligi masalaning dolzarbligidan dalolatdir.

Teolingvistika termini joriy qilingunga qadar tilshunoslikda din, diniy marosimlar, unga bog'liq bo'lgan urfodatlar va diniy tillarning o'zaro munosabatlarini va bog'liqliklarini anglatuvchi diniy til yoki din tili, sakral til, diniy ma'rifiy uslub, konfessional til, muqaddas til" va shu kabi bir qator terminlar bilan nomlanib kelingan[5]. Lekin, yuqoridagi terminlar bir leksik guruhga mansub bo'lsa-da, ular o'zaro sinonim bo'la olishmaydi. Bu borada A.S. Gadoskiy qo'yidagicha ta'rif keltiradi: din va tilning o'zaro munosabati natijasida paydo bo'lgan, tillarda aks etgan diniy so'z va terminlar hamda ularning keng va tor doiradagi ma'nolarini o'rganuvchi fan –teolingvistikadir[6]. A.S.Gadoskiy keyinchalik ushbu ta'rifiga biroz o'zgartirish kiritadi: "teolingvistika – bu din va tilning o'zaro kesishishi natijasida paydo bo'lgan, dinning tilda o'z aksini topgan va uning namoyon bo'lishini tadqiq etuvchi fan"[6]. Biz ham A.S.Gadoskiyning teolinvistika borasidagi fikrlarini qo'llab-quvvatlaymiz.

Rus tilshunosligida teolingvistika yangi yo'nalish bo'lib, markazda diniy aloqa va filologik hodisalarni dunyoning diniy manzarasi nuqtai nazaridan tadqiq qilish deb izohlanadi. Zero, 1915 yilda Sankt-Peterburg Imperator diniy akademiasining professori N.N. Glubokovskiy "Yangi ahdning yunon tili" kitobida zamonaviy tilshunoslik nuqtai nazaridan yunon bibliya tilini o'rganishda ilohiyotshunoslar va filologlar o'rtasidagi hamkorlik zaruriyati mavjudligini ta'kidlagan va shu bois, bu masalalar yuzasidan ko'plab olimlar teolingvistik muammolarga qaratilgan hamkor tadqiqotlar olib borishadi[7]. 2012 yilda V.I.Postovalova esa "Zamonaviy gumanitar bilimlarda teolingvistika" nomli maqolasida "teolingvistika"– alohida turdagi ilmiy intizom, garchi diniy-teologik nazariya qo'shilishi bilan murakkab bo'lsa ham dunyo voqeligini idrok etish aspektlaridir" deb sharh keltiradi. Umuman olganda, teolingvistikaning o'rganish predmeti din va tilning o'zaro ta'sir jihatlarini, bir tomondan tilning diniy vaziyatlarda qanday ishlashi tahlili bo'lsa, ikkinchi tomondan dinlarning tilda aks etishidir. Teolingvistikaning o'rganish obyekti ilohiyotshunoslik uchun "diniy til" bo'lib xizmat qilishi, tilshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari, tilshunoslik tarixi, konfessional sabablarga ko'ra tilning kelib chiqishi nazariyalari yoki bir so'z bilan aytganda, barcha hodisalar Xudo bilan bog'langan, ular tilda mustahkamlangan hol Mashxur tilshunos olim A.Vanger tilshunoslik va teologiya o'rtasida juda katta aloqadorlikni qayd etadi. Uning fikricha teolingvistika quyidagi muammolarni yechilishida asosiy rol o'ynaydi. Jumladan: diniy tilshunoslik bilan bog'liq muammolar, diniy-lingvistik xatti-harakatlar, diniy ko'rinishdagi munosabat shakllari, diniy ta'limotni o'rganish bilan bog'liq holatlar.

Tadqiqot metodologiyasi. Olimlar teolingvistikaning turli tomonlarini o'rganishmoqda va shu tufayli fanga diniy tilshunoslikning fonetik, so'z tarkibi, morfologik, leksik, frazeologik va sintaktik tuzilishini o'rganuvchi *teonema* termini kirib keldi[8]. *Teonima*- diniy so'zlar va frazeologik birliklarini yoki umuman dinga aloqador har jihatni lingvistik jihatdan tadqiq qilishni o'z oldiga maqsad qiladi.da aks etganligi deyiladi.

Shuni aniq ayta olamizki, ilohiyotshunoslik tilshunoslikning dunyoviy, transmilliy va dindan tashqari bo'lgan bo'limidir. Diniy dunyoqarashning tilda aks etishi

ilohiyotshunoslikning o'rganish predmeti hisoblanadi. Buni bir nechta usulda o'rganish mumkin. Xususan, birinchi usul til tabiatining ontologik talqini masalalari bo'lib, bunda dunyoning diniy tushunchasi tadqiqotning o'ziga xos sohasidir. U muayyan jamiyat uchun dolzarb va haqiqiydir. Diniy kontekstdagi ko'plab tushunchalar, hodisalar alohida ma'noga ega. Muayyan jamiyat uchun dolzarb va haqiqiy bo'lgan bunday ma'no foydalanishda umuman yuq bo'lishi yoki o'zgarishi mumkin. Ikkinchidan esa, diniy aloqani tahlil qilish nutq hulq-atvor taktikasini, nutq odob –axloq formulalarini solishtirganda farqlar turli dinlarga e'tiqod qiluvchilarning kommunikativ hatti-harakatlarida aniq ko'rish uslubidir.

Tilshunos olim A.K. Gadoskiy teolingvistikaning "Ruscha-polyak terminalogiyasi" maqolasida teolingvistik terminologiyani tizimlashtirishga va uning ikki tilli lug'atini tuzish uchun tizim yaratishga harakat qildi. Olim bunday lug'atni boshqa tadqiqotchilar uchun manba bo'lishini maqsad qilib, unda har bir lug'atda uchraydigan xar bir atama manbalariga bibliografik havolalar berish lozimligini ta'kidlaganx [9]. Shu o'rinda aytib o'tish o'rinliki, teolingvistikaning terminalogik lug'ati har bir tilga kerakli va juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Binobarin, ilohiy bilimlarni dunyoqarash va madaniyatga integratsiyalashuvi tendensiyasi til fanida o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, "Tafakkur qiluvchi odam Xudo haqidagi g'oya uning dunyo haqidagi ilmiy tushunchasiga mos kelishini hohlaydi" deb yozadi[10]. V.S.Yurchenko til sintaksisini o'rganishning yangi usullarini izlashga bag'ishlangan asarida. Bu singari izlanishlar natijasi teolingvistlar oldida qo'yidagi masalalar borasida tadqiqotlar olib borishni talab qilmoqda.

- diniy muloqot tilining tavsifi;
- diniy matnlar genologiyasi;
- ilohiyot terminologiyasi;
- diniy matnlarni tarjima qilish masalalari;
- injil va tishunoslik;
- injil iboralari;
- yevangilizmlar;
- ibodat tili;
- diniy lug'at va leksikografiya; diniy matnlarning uslubi;

- ommaviy ahborot vositalaridagi din;
- muqaddas onomastika;
- cherkov hujjatlari tili va boshqalar[9].

Ko'rib turganingizdek, teolingvistikada yechimi kutilayotgan muammolar ko'p va ularning aksariyati bugungi kungacha tadqiqotchilar tomonidan izchil o'rganilgan.

Bu borada A.K. Gadoskiy teolinvistika tilda qat'iy paydo bo'lgan dinning ko'rinishlarini aks ettiradigan fandir deydi. Ushbu yondashuvda til va din o'rtasidagi munosabatni talqin qilishda asosiy e'tibor ushbu sohalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga qaratilgan. Xususan, bu dinshunos olimlarga ma'lum bo'lgan til hodisalari va lisoniy birliklarning aniqlanishi bilan bog'liqdir, degan fikrlari qimmatlidir[2]. Til din o'rtasidagi munosabatda shu bugungi kungacha turli yondashuvlar mavjud, bu munosabatlarda tilning o'zi kengroq ma'no anglatib, ma'lum bir konfessional dogmaning asosiy tamoillari bilan uyg'un bo'lgan qarashlar paradigmaları prizmasi orqali qabul qilinadi deb fikr yuritadi taniqli tadqiqotchi V.I.Postavalova. Biroq, Postavalovaning "Tilni inson borlig'ining ajralmas qismi bo'lgan dunyoni anglash, madaniyat va din kabi fundamental jabhalari bilan birgalikda kompleks o'rganish *sintetik* fanlarni o'rganishni yuzaga keltiradi" degan mulohazalari ham mavjud. Hozirgi kunda tilshunoslikda jadallik bilan rivojlanayotgan sotsiolingvistika, etnolingvistika, lingvokulturologiya, psixolingvistika, kognitiv lingvistika va aynan ma'lum shaxslarning o'ziga xos tilini o'rganuvchi linvopersonologiya yo'nalishlari bilan uzviy bog'liqligi teolingvistikani keng doirada tadqiq qilinishi

lozimligini anglatadi. Bular qatoriga ilohiyot, diniy antropologiya va lingvistikani o'zaro bog'lagan holda tadqiq etish natijasida yangi shakllanib kelayotgan ana shunday diniy-lisoniy fan –teolingvistikani ham vujudga kelishini qo'shish mumkin.

Aynan teolingvistika nomi ostida o'zbek tilshunos olimlari ko'plab izlanishlar olib borilganligi o'zbek olimlari tomonidan fanning ravnaqi uchun qo'shilgan hissa hisoblanadi. Jumladan, M.R.Galieva tadqiqotida teolingvistik muammolarni yoritishi va teolingvistikani tadqiq etish jarayonida vujudga keladigan muammolarga turlicha yechimlar tavsiya qilganligi fikrimiz dalilidir.

D.Rahimjonov boshchiligidagi chop etilgan "Inglizcha-o'zbekcha diniy- ijtimoiy islohatlar lug'ati" ham shular sarasidan bo'lib, mazkur lug'at teonimika doirasidagi tadqiqotlarning tilga olishga arziqligi ekanligi bilan baholanadi[11]. Ushbu lug'at islom dini hususan, muqaddas Qur'oni karimda mavjud bo'lgan so'zlardan tashkil topgan.

Xulosa va takliflar. Jahonning ko'plab tadqiqotchilari o'z izlanishlarida yuqorida ta'kidlaganimizdek, teolingvistik masalalarga turlicha yondashishgan. Masalan, Jan P'er Noppenning tadqiqotlari xristianlikning muqaddas manbasi hisoblangan Injilni lingvistik jihatdan tadqiq etish bo'lsa, M.Galieva teolingvistikani barcha dinlarga mansub lisoniy nazariyasini ishlab chiqqan. Teolingvistikada yechimi kutilayotgan muammolardan biri-bu – lug'at tuzish masalasi bo'lib, eng murakkab va o'z navbatida mas'uliyatli coha hisoblanadi. Ayniqsa, diniy-ijtimoiy termin va iboralarni o'z ichiga olgan lug'atlari faqatgina filologik bilimlar bilan emas,

balki diniy bilimdan ham yetarlicha xabardorlikni talab qiladi. Misol tariqasida "Inglizcha- o'zbekcha diniy-ijtimoiy islohatlar lug'ati"ning kirish qismida xristianlikdagi Isoning shogirdlari hisoblangan "anostollar"ni yunon tilidan o'zbekchaga islomdagi Rasululloh (s,a,v) atrofida musulmonlarga qiyos qilib "sahobalar" deb tarjima qilish bilan xatoga yo'l qo'yilgan[12].

Tilshunos olimlar sanalgan, J.Omonturdiyev va A. Omonturdiyevlar tomonidan tuzilgan ma'rifiy-irfoniy istilohlar izohli lug'atining kirish qismida xozirda turli manbalarda ishlatiladigan arab, fors va boshqa tillardan kirib kelgan tarjimada ham saqlanadigan diniy xarakterga ega bo'lgan istilohlarni tahlil qilish, xalqqa yetkazish muammolarini ochib beradigan bunday tahlillar mavjud bo'lib, bu esa diniy istiloh lug'atlarini tuzish zaruratini keltirib chiqargan[12]. Bu singari muammolarni o'z lugatida bartaraf etgan olimlar qatoriga M.E Umarxo'jaevni qo'shish mumkin. U diniy terminlar va iboralarga bag'ishlangan qisqa izohli lug'atni yaratgan. Umarxo'jaev o'z lug'atida islomiy diniy ibora va so'zlarni jamlagan. Demak, bundan ko'rinish turibdiki, qaysi din bo'lishidan qat'iy nazar, teonimlar hamisha tadqiqotlar markaziy masalasi bo'lib kelgan. Teonimikada lug'at tuzish muammolari ham alohida ahamiyatga egadir. Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosalash mumkinki, teologiyani fan sifatida oddiy dunyoni anglatish va uning mifologik dunyoqarashdan farq qilinishi, umumiy shaklda obyektivligi, dinning konseptual vositalardan foydalangan holda tushunilishi va uning nazariy jihatdagi ko'lamini anglashimiz zarur.

ADABIYOTLAR

1. Галиева М. Р. Дунёнинг лисоний тасвирида диний мифологик тафаккурнинг акс этиши. Фаргона, 2019. – Б.16.
2. Поставалова В. И. Теолингвистика в современном религиозном дискурсе. Института языкознания РАН. Москва, Россия, С –58
3. Степаненко В.А. Теолингвистика? -Да Теолингвистика! Вестник ИГАУ-2012. – Ст -222
4. Mavlonov.O.A. So'z san'ati xalqaro jurnali. №5 ISSN 2181-9297 Doi Journal 10.26739/2181-9297. Toshkent-2019. P –12.
5. Ярцева В.Н. Языкознание большой энциклопедический словарь–М: Большая Российская энциклопедия, 1998. – С.65.
6. Гадамский. А.С. О лакунах в системе лингвистической науки: проблема взаимодействия языка и религии // Ученые записки Таврического национального университета- Филология том 20 (59) №1. Симферополь: ТНУ,2007. С –287-292.
7. Жилсон.Э. Философ и теология/М: Гнозис,1995; Карпушин В.А. Логика и богословие [текст]: учебное пособие/ В.А. Карпушин. -СПб.:Библия для всех. 2002. – С.55.
8. О'.Xudoynazarova. O'zbek va ingliz tillarida mifonim komponentli frazeologizmlarning linvomadaniy tadqiqi. Disser: Termiz -2022. B. 92.
9. Бугаева И.В.Теолингвистика: теология + лингвистика? Россия, С –298
10. Владимиров Ю.С. Богатый материал о современных опытах осмысления взаимосвязи науки и религии представлен в сборниках «Христианство и наука» под редакцией. С –16.
11. Rahimjonov D. Kadirov A. Sobirov S. Mavlonov O. Jo'rayev H. Inglizcha o'zbekcha diniy-ijtimoiy islohatlar lug'ati. Toshkent "Mavaraunnahr" 2011. Б –160
12. Omonturdiyev J. Omonturdiyev A. Ma'rifiy –irfoniy istilohlar izohli lug'ati. Toshkent: Mumtoz so'z. 2014. – Б.252.